

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'zbek shevashunosligi markazi**

**"O'ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:  
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV"  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari**

2023-yil 20-may

**TOSHKENT – 2023**

**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari /  
Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2023. bet.**

**Mas’ul muharrir:**

**Sh.Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay’ati:**

**Normurodova N. Z.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Jamoliddinova O.R.**, pedagogika fanlari doktori, professor;

**Normamatov S.M.**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

**Abdushukurov B.B.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Abdinazimov Sh.N.**, filologiya fanlari doktori, professor;

**Ashirboyev S.**, filologiya fanlari doktori, professor,

**Jo‘raqo‘ziyev N.I.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;

**Rahmatov M.M.**, filologiya fanlari doktori, dotsent;

**Tilavov A.X.**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

**Xidraliyeva Z.R.**, katta o‘qituvchi;

**Aliqulova H.**, katta o‘qituvchi;

**Qodirov U.A.**, o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tomonidan “**O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv**” mavzusidagi 2023-yil 20-mayda o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

XSH – Кутб. Хосров и Ширин // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: ФАН, 1966-1971.

ESS – 1) Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1974.-

2) Севортян Э.В. Этимологические словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на букву “Б”. –М.: Наука, 1978.

3) Севортян Э.В. Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”. – М.: Наука, 1980.

O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I-II. – Русский язык, 1981.

O'XSHL – Ўзбек халқ шевалари лугати. – Тошкент: ФАН, 1971.

QR – 1) Н.Б. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. I-II Тошкент: Ёзувчи, 1990-1991.

2) Rabqhyzi. Narrationes de Prophetis. Reproduced in facsimile. Wirt an introductions by K. Gronbech. – Copenbech. 1948.

3) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. – Ankara, 1997.

## O'ZBEK TILI SHEVALARI KORPUSI ARXITEKTURASI

### ARCHITECTURE OF THE CORPS OF UZBEK LANGUAGE LANGUAGES

**Elov Botir,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Abdullayeva Oqila,**


*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotation.** It is possible to obtain accurate and correct results of linguistic analyzes through language corpora with normalized linguistic and extralinguistic features. It is the corpus of dialects of the Uzbek language that shows the vocabulary of the language, its features from the point of view of time and region, and is a valuable base for conducting comparative analysis, analytical study of regional differences, and linguistic research. This article analyzed the typology of language corpora, expected opportunities, the structure of the corpus of Uzbek language dialects, and problematic areas.

**Key words:** corpus, annotation, dialect, corpus of dialects.

Korpus lingvistikasi sohasi va turli lingvistik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan, maqsadli til korpuslarni yaratish ishlari 60-yillardayoq boshlangan. An'anaviy va kompyuter tilshunosligida korpus lingvistikasining o'rni, metodologiyasi, obyekti va vazifalari G.Lich, R.Garsid, J.Sinkler, L.Floverdev, T.Makkenri, A.Hardi, M.Makkarti, V.N.Frensis, G.Kennidi singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. T.Makkenri, R.Ksiao, R.Reppen, D.Biberlarning korpus lingvistikasi sohasidagi tadqiqotlari korpuslarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni, til o'qitishda korpuslardan foydalanish prinsiplari, afzalliklari to'g'risida aniq va batafsil tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot ishlari tahlil qilinganda til korpuslari klassifikatsiyasi turlicha keltirilganining guvohi bo'lish mumkin. 1-2-jadvallar misolida til korpuslarining turlarini aniq ko'rish mumkin.

*I-jadval. Korpus tipologiyasi*



Korpus matnlarning katta to‘plami bo‘lishi bilan birga, bu lingvistik tahliliga asoslanadigan yozma yoki og‘zaki materiallar asosi hamdir. Korpus turlari haqidagi ma'lumotlar kuzatilganda, ularning tadqiqot maqsadiga yoki foydalanuvchilar auditoriyasiga ko‘ra tuzilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Bunda umumiy va maxsus korpus turlari o‘z ichida yana guruhlarga ajratiladi.

2-jadval. Til korpuslari tahlili

<p><input type="checkbox"/> <b>Til ma'lumotlari turiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Yozma (Braun Korpusi, LOB);</li> <li><input type="checkbox"/> Og‘zaki: London-Lund korpusi (The London-Lund Corpus);</li> <li><input type="checkbox"/> Aralash korpus (HKРЯ).</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Paralleligiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Bir tilli;</li> <li><input type="checkbox"/> Ikki tilli;</li> <li><input type="checkbox"/> Ko‘p tilli.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Adabiyligiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Adabiy;</li> <li><input type="checkbox"/> Sheva;</li> <li><input type="checkbox"/> Og‘zaki (Bir kunlik so‘zlashuv korpusi);</li> <li><input type="checkbox"/> Terminologik;</li> <li><input type="checkbox"/> Aralash.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Maqsadiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Ko‘p maqsadli;</li> <li><input type="checkbox"/> Ixtisoslashtirilgan.</li> </ul>	<p><input type="checkbox"/> <b>Janriga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Badiiy;</li> <li><input type="checkbox"/> <b>Dialektal;</b></li> <li><input type="checkbox"/> Folklor;</li> <li><input type="checkbox"/> Dramaturgik;</li> <li><input type="checkbox"/> Publitsistik.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Foydalanish holatiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Erkin;</li> <li><input type="checkbox"/> Tijoriy;</li> <li><input type="checkbox"/> Yopiq.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Dinamikligiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Dinamik;</li> <li><input type="checkbox"/> Statik.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Saqlash shakliga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Ovozli;</li> <li><input type="checkbox"/> Yozma;</li> <li><input type="checkbox"/> Aralash.</li> </ul> <p><input type="checkbox"/> <b>Annotatsiyalanganligiga ko‘ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> Teglangan;</li> <li><input type="checkbox"/> Teglanmagan.</li> </ul>
--	--

Ko‘pchilik tadqiqot ishlarida til korpuslari turlari borasida so‘z ketganda milliy korpus va maxsus korpus turlariga ajratiladi. Tilning milliy korpusi ilmiy tadqiqot va keng hajmi til qonuniyatlarini o‘rganish uchun xizmat qiladi. Milliy korpus turli janr va uslubga oid matnlarning me’yorlashtirilgan muayyan tarkibiga egaligi, shuningdek, korpusga kiritilgan matnlarning turli

xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar mavjudligi (annotatsiyalanganligi) bilan ajralib turadi. Korpus tilshunosligida tilning milliy korpusi qurilishi bir qancha muhim talablar belgilab berilgan.

➤ Katta va zarur hajmga ega bo'lish (**katta hajmli va tizimga solingan matnlar to'plamidan iborat til manbasi**);

➤ Yetarlicha til oralig'ini qamrab olishi (**lingvistik tadqiqotlar va amallar bajarishda kuchli informatsion resurs**);

➤ Matnlar namunasining reprezentativligi;

➤ Matnlarning filologik ekspertizadan o'tganligi;

➤ Matnlarning elektron shaklda bo'lishi (**katta hajmli lug'atlarni tuzish uchun asosiy manba**);


➤ Annotatsiyalashning ko'p profilli tizimi bo'lishi (**til birliklarining xalq nutqida qo'llanish chastotasini statistik aniqlashdagi asosiy baza**);

➤ Korpusning ko'p funksiyaliligi (**uslubiyatni o'rghanishda qulay matnlar to'plami hisoblanadi**);

➤ Ommaviylik.

Korpusning zaruriy darajada bo'lishi uchun uning ko'lami, ya'ni necha million so'z va so'zshakl qamrab olinganligi ham nazardan chetda qolmaydi. Britaniya milliy korpusi misolida uslublar va janrlar tarkibini ko'rish mumkin.

*3-jadval. Britaniya milliy korpusi tuzilmasi*



Til korpuslari qimmatli baza va matnlar to'plami bo'lishi bilan birga tadqiqotchi quyidagi korpus imkoniyatlari va natijalariga erishishi mumkin:

- ✓ belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakldagi ko'rinishi;
- ✓ tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlari;
- ✓ belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxati;
- ✓ u yoki bu yozuvchining ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasi;
- ✓ so'zning o'z va ko'chma ma'nosi;
- ✓ leksik qo'llanishining yashirin modeli (imkoniyati);

### Dialekt (sheva) korpusi

O'zbek korpus lingvistikasida shevalar korpusini yaratish bir qadar murakkab jarayonlardan biridir. Korpus tilshunosligida parallel korpuslar ikki va undan ortiq tillar doirasida yoki bir til doirasida ham tuziladi. Aynan bir til doirasida tuzilgan parallel korpusda til variantlari, ya'ni shevalari

bir-biriga qiyosan o‘rganiladi. O‘zbek tili shevalari korpusining tuzilishi esa tilshunosligimizda muhim va dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shevalar tilning lug‘at boyligi, uning davr va hudud nuqtayi nazaridan xususiyatlarini ko‘rsatuvchi xazina hisoblanadi. Shevalar korpusi esa ana shu boylikni amalda ko‘rish, qiyosiy tahlil qilish, hududlararo farqlarni tahlil qilish va lingvistik tadqiqotlar olib borishdagi qimmatli baza hisoblanadi. Sheva korpusini qurishda Britaniya, Xelsinki, Gruziya, Rus tili korpusi, Hindiston (dialektlari korpusi), Xitoy Mandarin dialektlari korpusi, arab dialektlari sotsial Media korpusi, Nordik dialect korpusi, ko‘p dialectli arabcha og‘zaki nutq korpuslari misolida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilining shevalari korpusini qurishda asosiy ikki muammoga duch kelish mumkin:

**1-muammo:** shevalarga mansub turli mavzudagi namunali matnlar bazasini yig‘ish;

**2-muammo:** yig‘ilgan matnlarning to‘g‘ri transkripsiyasini amalga oshirish.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida 3 lahja: qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari va lahjalarga taalluqli ko‘plab shevalari mavjud. Bu lahja va shevalarning umumiy o‘xshash tomonlari bilan bir qatorda farqlanadigan o‘ziga xos dialektal xususiyatlari ham mavjud. Yuqoridagi 3 ta katta lahjadan bir qancha sheva turlari ajralib chiqqan. Lahja va shevalarning tasnif qilinishi ham turli olimlar ishlarida biroz farq qiladi.

#### **Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasи:**

1. **Toshkent guruhi shevalari:** Toshkent, Parkent, Piskent, Yangiyo‘l, Qoraxitoy, Piyozboshi shevalari;

2. **Farg‘ona guruhi shevalari:** Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Namangan, O‘sh shahar shevalari va ularga yondosh aholi hududlari (Vodil, Uychu, Chortoq, Shahrixon, O‘zgan va b.)

3. **Samarqand-Buxoro guruh shevalari:** Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo‘jand shevalar.

**Qipchoq lahjasи:** Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Shimoliy Xorazm, Farg‘ona vodiysisidagi, Tojikistonning o‘zbek-laqay, Ohangaron vohasidagi j-lovchi shevalar kiradi.

**O‘g‘uz lahjasи:** Xorazm viloyati, Janubiy Xorazm, Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Bog‘ot, Qo‘shko‘pir, Shovot, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako‘l shevalari, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog‘istoning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent.

Yuqoridagi tasniflash turli adabiyotlarda biroz farq qilishi kuzatiladi. Sheva leksik birliklari, grammatik qo‘shimchalari, ba‘zi holatlarda gap qurilishi ham ham adabiy tildan, ham o‘zaro bir-biridan farq qiladi. Masalan, buni oddiy kundalik ishlataidigan so‘zshakllar misolida ham ko‘rish mumkin.

Masalan, adabiy tildagi *ona, boryapmiz* so‘zshakllarining shevalararo farqini kuzatishimiz mumkin.

**Ona** so‘zining turli variantlarda qo‘llanilishi:

<b>Adabiy/sheva</b>	<b>Leksik birlik</b>
<b>Adabiy til</b>	<b>ona</b>
<b>Buxoro/Qorako'l</b>	<b>nana/anna</b>
<b>Navoiy/Qashqadaryo</b>	<b>aya</b>
<b>/Farg'ona</b>	
<b>Navoiy</b>	<b>yena</b>
<b>Toshkent</b>	<b>oyi/opa</b>
<b>Xorazm</b>	<b>opa/opo</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>ena/buvu</b>
<b>Namangan</b>	<b>aba</b>

*bormoq* fe'lining davomli zamон 1-shaxsda qo'llanilishi:

<b>Adabiy/sheva</b>	<b>Leksik shakl</b>	<b>Grammatik shakli</b>
<b>Adabiy til</b>	<b>boryapman</b>	<b>yap+man</b>
<b>Buxoro/Qashqadaryo</b>	<b>boromman/borommiz</b>	<b>om+man/om+miz</b>
<b>Navoiy/Farg'ona</b>	<b>boryappan/boryappiz</b>	<b>yap+pan/yap+piz</b>
<b>Buxora (turli hududlari)</b>	<b>boropman/boropmiz</b>	<b>op+man/op+miz</b>
<b>Xorazm (Gurlan, Yangibozor)</b>	<b>borvotirman</b>	<b>votir+man</b>
<b>Xorazm (Xiva)</b>	<b>boryotirman</b>	<b>yotir+man</b>
<b>Qoraqalpoq</b>	<b>boratirmiz</b>	<b>atir+man</b>
<b>Toshkent</b>	<b>borvomiz/boravuza</b>	<b>vo+miz/a+vuza</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>borotipmiz/boratantik</b>	<b>otip+miz/atan+tik</b>

Biz yuqoridagi misollarning transkripsiyasini yozmadik. O'zbek tili shevalaridagi matnlarni transkripsiya qilishda xalqaro va bugungacha qo'llanilgan an'anaviy transkripsiya qoidalari bor. Ammo bu jarayonni xato qilmasdan to'g'ri amalga oshirish ham muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbek tili shevalari korpusini qurish uchun yuqorida 2 ta muhim masala mavjudligini aytib o'tdik. Sheva matnlarining transkripsiysi yetakchi mutaxassis olimlar tomonidan yoziladi va tekshirib chiqiladi. Lekin o'zbek shevalari korpusi bazasini shakllantirish uchun me'yorashtirilgan zaruriy hajmdagi namunali matnlar to'plamini yig'ish lozim.

O'zbek shevalari korpusi uchun 2-eng muhim masalalardan biri – zarur datasetni, ya'ni ma'lumotlar bazasini yig'ish masalasıdir. Ma'lumki, korpusga zarur matnlar word.doc shaklida bo'lishi kerak. Uzoq yillik tajribalarda sheva matnlari yo og'zaki nutqni audio shaklida yoki qog'ozga yozib olingan. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida shevalar lug'ati tuzilgan. O'zbek shevalari korpusi to'liq va mukammal bo'lishi uchun qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjasining turli shevalarida yozilgan *she'riy, nasriy, she'riy-nasriy matnlar; qissa, roman, afsona, aytim, matal, lof, intervju, suhbat, hikoya, qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, lapar, doston kabi janrlararo matnlar; ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma'rifiy* mavzulararo matnlar yig'ilishi zarur. Ammo qanday to'planadi savoli mavjud? O'zbek shevalari korpusi bazasini quyidagi usullarda amalga oshirish mumkin:

1. Shu kungacha amalga oshirilgan dissertatsiyalarda yig‘ilgan va ilova qilingan sheva matnlari;
2. Turli hududlarda ijod qilgan yozuvchi va shoirlarning e’lon qilingan asarlari (masalan, Tog‘ay Murod asarlari, Shukur Xolmirzayevning bir nechta hikoyalari, Azim Suyun she’rlari, Matnazar Abdulhakim she’rlari va h.);
3. Shu kungacha dialektologiya sohasida darslik va qo‘llanmalar nashr etgan ustoz olimlar ishlaridagi matnlar;
4. E’lon qilingan sheva lug‘atlari;
5. Tadqiqotchilar tomonidan hududlararo sheva matnlarini qog‘oz va audio formatda yozib olish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi ikki masala yechimini topgach, korpusning dasturiy va lingvistik ta’mnoti quriladi va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Katta hajmli shevalar korpusi orqali milliy til va uning variantlari to‘g‘risida aniq va to‘g‘ri xulosalar olinishiga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Leech G. Corpus Annotation Schemes. / In Literary and Linguistic Computing. – Vol. 8, No. 4. Oxford University Press, 1993. – P. 275-281.
2. Leech G., Wilson A. Recommendations for the morphosyntactic annotation of corpora. / EAGLES Document EAG-TCWG-MAC/R, 1994. [www.ilc.cnr.it/EAGLES/browse.html](http://www.ilc.cnr.it/EAGLES/browse.html).
3. Leech G., Garside R., Steven E.A. The Automatic Grammatical Tagging of the LOB Corpus // ICAXE Ncwo, 1983. – p. 13-33. <https://www.researchgate.net/publication/238760957>.
4. Garside R., Leech G., Sampson G. The CLAWS Word-tagging System. / The Computational Analysis of English: A Corpus-based Approach. London: Longman, 1987.
5. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics (1st ed.). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996.
6. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
7. Francis W.N., Svartvik J. Language Corpora B.C. // Directions in Corpus Linguistics, Proceedings of Nobel Symposium 82 Stockholm, 1991.
8. Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. Harlow: Addison Wesley Longman, 1998.
9. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991.
10. Flowerdew L. Corpus Linguistic Techniques Applied to Textlinguistics. 1998. – p. 541-552.
11. McCarthy M., O’Keefe A. What are corpora and how have they evolved?: The Routledge handbook of corpus linguistics. – London and New York, 2010.
12. McEnery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-based Language Studies: An Advanced Resource Book. Routledge, 2006.
13. Reppen R. Using corpora in the language classroom. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
14. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics. Investigating Language Structures and Use. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
15. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent, 1971.
16. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.

## MUNDARIJA

### YALPI YIG'ILISH MA'RUZALARI

<b>1</b>	<b>Normamatov Sulton Ermatovich,</b> G'ozzi Olim Yunusov – o'zbek shevalarining tasnifchisi	<b>3</b>
<b>2</b>	<b>Dadaboyev Hamidullo,</b> “Devonu lug‘otit turk”da suyuqlik saqlash uchun xizmat qiladigan buyum nomlarini ifodalovchi leksik birliklar xususida	<b>6</b>
<b>3</b>	<b>Мирлан Аманович Наматов,</b> Связи тюркских эпосов Манас и Алпамыш с Зороастром	<b>10</b>
<b>4</b>	<b>Abdinazimov Shamshetdin Najimovich</b> Qaraqalpaq til biliminde lingvofolkloristikaliq izertlewler hám olardíń baǵdarlarí	<b>18</b>
<b>5</b>	<b>Латыпов Фарит Рафгатович</b> Военная тематика и лексика, связанная с войной в древнейших тюркских и тюркоидных надписях античного средиземноморья	<b>22</b>
<b>6</b>	<b>Мынбаев Н. Ж.,</b> К вопросу о прохождении этнического имени монгол	<b>27</b>
<b>7</b>	<b>Turdimov Shomirza</b> Tinglovchi muhitidagi epik bilim va xotiraning eposni o'rganishdagi o'rni	<b>32</b>
<b>8</b>	<b>Abdushukurov Baxtiyor</b> “Qisasi Rabg‘uziy” va o'zbek tili shevalari	<b>36</b>
<b>9</b>	<b>Elov Botir, Oqila Abdullayeva,</b> O'zbek tili shevalari korpusining arxitekturasi	<b>44</b>
<b>10</b>	<b>Xolmonova Zulkumor</b> O'zbek shevalari korpusini yaratish asoslari	<b>47</b>
<b>11</b>	<b>Ashirboyev Samixon, Baurjan Sayfullayev</b> Dialektal zonalardagi kontaktologik jarayonlar talqini	<b>51</b>

### SHEVASHUNOSLIK

<b>1</b>	<b>Ибрагимов Ю.М.</b> Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида диалектал фразеологик синонимлар	<b>55</b>
<b>2</b>	<b>Azimov Inomjon,</b> Jadidlar faoliyatida tayanch dialekt masalasi	<b>59</b>
<b>3</b>	<b>Baxtiyor Mengliyev,</b> Dialektologiyaga modernizatsiya zarur	<b>62</b>
<b>4</b>	<b>Murodova Nigora Quliyevna</b> Umumiyl va taksonomik areal lingvistika	<b>63</b>
<b>5</b>	<b>Najimov Perdebay Aymanovich</b> Folklorlíg tekstlerdiń tillik ózgeshelikleri máselesine	<b>66</b>
<b>6</b>	<b>Muhayyo Xakimova</b> Dialektizmlarni qo'llashning psixologik jihatlari	<b>69</b>
<b>7</b>	<b>Murodqosim Abdiyev, Salohiddin Rahmonov</b> Samarqand shahri o'g'uzlari qisqacha tarixi	<b>72</b>
<b>8</b>	<b>Sobirov Abdulhay Shukurovich, Qodirova Naima Omadbek qizi,</b>	<b>76</b>